



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQUARISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	367
Eshtemirova Anora Norboy qizi	



O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Eshtemirova Anora Norboy qizi

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktranti

E-mail: eshtemirova98anora@gmail.com

Orcid: 0009-0000-5779-7688

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot 2017–2024-yillar davomida ishlab chiqarish hajmi, bandlik, mehnat unumdorligi, investitsiyalar va eksport ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbatlarni empirik baholashga asoslangan. Olingan natijalar oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'sishi asosan intensiv omillar — mehnat unumdorligining oshishi, kapital bilan qurollanish darajasining ortishi hamda texnologik modernizatsiya hisobiga ta'minlanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarmoqning yalpi ichki mahsulot va sanoat tarkibidagi ulushining qisqarishi mavjud o'sish modelining ayrim tarkibiy cheklovlarini ochib beradi. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar asosida oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, intensiv iqtisodiy o'sish, tarkibiy transformatsiya, investitsiya, eksport, O'zbekiston.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current state and development trends of production efficiency in Uzbekistan's food industry. The study is based on an empirical assessment of the relationships between production output, employment, labor productivity, investment, and export indicators over the period 2017–2024. The results indicate that growth in production output in the food industry has been driven mainly by intensive factors, including improvements in labor productivity, increased capital intensity, and technological modernization. At the same time, the declining share of the sector in gross domestic product and in the industrial structure reveals certain structural limitations of the existing growth model. Based on advanced international experience, the article scientifically substantiates priority directions for enhancing production efficiency in the food industry.

Key words: food industry, production efficiency, labor productivity, intensive economic growth, structural transformation, investment, exports, Uzbekistan.

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ современного состояния и тенденций развития эффективности производства в пищевой промышленности Узбекистана. Исследование основано на эмпирической оценке соотношений между объемами производства, занятостью, производительностью труда, инвестициями и экспортом за период 2017–2024 годов. Полученные результаты показывают, что рост объемов производства в пищевой промышленности в основном обеспечивался за счет интенсивных факторов — повышения производительности труда, роста капиталоемкости и технологической модернизации. Вместе с тем сокращение доли отрасли в валовом внутреннем продукте и в структуре промышленности выявляет структурные ограничения действующей модели роста. В статье на основе передового зарубежного опыта научно обоснованы приоритетные направления повышения эффективности производства в пищевой промышленности.

Ключевые слова: пищевая промышленность, эффективность производства, производительность труда, интенсивный экономический рост, структурная трансформация, инвестиции, экспорт, Узбекистан.

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash, aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda sanoat tarkibini diversifikatsiya



qilishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda mazkur tarmoqda ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o'sishi, investitsiya faolligining kuchayishi va eksport geografiyasining kengayishi kuzatilmoqda.

Biroq oziq-ovqat sanoati rivojlanishini faqat ishlab chiqarish hajmlarining mutlaq o'sishi orqali baholash ilmiy jihatdan yetarli darajada to'liq tasavvur bermaydi. Chunki bunday yondashuv iqtisodiy o'sishning qaysi modeli — ekstensiv yoki intensiv — ustun ekanini, shuningdek yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning iqtisodiyotdagi ulushini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shu bois tarmoqda yuz berayotgan o'zgarishlarni ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi hamda tarkibiy siljishlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarurati vujudga keladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida barqaror va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish bilangina emas, balki chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'minlanadi [1]. O'zbekiston sharoitida ham mazkur omillarning amaldagi samaradorligini empirik asosda baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligining hozirgi holatini iqtisodiy o'sish kontekstida tahlil qilish, shuningdek ilg'or xorijiy tajribalar asosida tarmoq samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va amaliyotida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoq qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat yaratish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega bo'lib, ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish samaradorligi masalalari, avvalo, iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv omillari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari A. Marshall hamda P. Samuelson va V. Nordhaus ishlab chiqarish hajmlarining o'sishini baholashda mehnat unumdorligi, kapital bilan qurollanish va texnologik taraqqiyotning hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, barqaror iqtisodiy o'sish faqat resurslar miqdorini oshirish hisobiga emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish orqali ta'minlanadi. Ushbu nazariy yondashuv oziq-ovqat sanoatida iqtisodiy natijalarni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar empirik asosda keng o'rganilmoqda. Jumladan, A. Raza va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda barqaror oziq-ovqat tizimlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va resurslardan oqilona foydalanish samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. G.K. Kantariya, B.T. Xayle hamda A.R. Manirix o'zbek olimlari esa qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishida texnik, taqsimot va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash orqali ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va daromadlilikni oshirish imkoniyatlarini asoslab beradilar. Ushbu tadqiqotlarda mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish tannarxi va bozor infratuzilmasi samaradorlikning asosiy determinantlari sifatida ko'rsatiladi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan OECD tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoatida yuqori samaradorlikka erishish chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, mahsulot assortimenti va eksport diversifikatsiyasini kengaytirish hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish bilan bevosita bog'liqligi qayd etiladi. Ularning xulosalariga ko'ra, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi va raqobatbardoshligini avtomatik ravishda oshirmaydi, balki samaradorlik va qo'shilgan qiymat yaratish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi va samaradorligi masalalari tizimli tarzda tadqiq etilgan. M. Qodirov oziq-ovqat sanoatini qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liq tarmoq sifatida ko'rib, unda mehnat unumdorligi va investitsiya faolligining o'sishi iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar ekanini ta'kidlaydi. B.Yu. Xodiyev va Sh.Sh. Shodmonov tadqiqotlarida esa sanoat tarmoqlarida, jumladan oziq-ovqat sanoatida tarkibiy transformatsiya, resurslardan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarish natijalari o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish hamda uni oshirish yo'llarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Tadqiqotda statistik, strukturaviy-dinamik



va qiyosiy tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ushbu yondashuv oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi, bandlik, mehnat unumdorligi, shuningdek investitsiya va eksport ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Empirik baza sifatida rasmiy milliy statistika ma'lumotlari, oziq-ovqat sanoatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro statistik to'plamlar tanlab olindi. Statistik tahlil doirasida 2020–2024-yillar kesimida oziq-ovqat sanoatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari nominal narxlarda baholandi. Nominal ko'rsatkichlardan foydalanish statistik qatorlarning uzluksizligini ta'minlash va rasmiy ma'lumotlar bilan metodologik muvofiqlikni saqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy o'sish kontekstida tahlil qilish hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari va samaradorligi. 1-jadvalda 2017–2024-yillar davomida oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi, samaradorlik hamda rivojlanish drayverlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2024-yillar davomida oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi 23,2 trln so'mdan 102,7 trln so'mgacha oshib, qariyb 4,4 baravar kengaygan. Ushbu jarayon tarmoqda mutlaq ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada o'sishini aks ettiradi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoatining umumiy sanoat tarkibidagi ulushi 2017-yildagi 3,3 foizdan 2024-yilda 2,2 foizgacha qisqargan. Mazkur holat tarmoqda ishlab chiqarish hajmining pasayganini anglatmaydi, balki yuqori kapital sig'imli tarmoqlarning nisbatan tezroq rivojlanishi fonida oziq-ovqat sanoatining umumiy sanoat o'sishidagi nisbiy ulushi kamayganini ko'rsatadi [2].

Bandlik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2017–2024-yillar davomida oziq-ovqat sanoatida band bo'lganlar soni 7,2 foizga oshgan. Ayni paytda ishlab chiqarish hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi mehnat unumdorligining sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi. Ushbu holat tarmoqda iqtisodiy o'sish asosan intensiv omillar hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi.

1-jadval. Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi, samaradorlik va rivojlanish drayverlari 2017-2024 y.)¹

Blok	Ko'rsatkich	2017-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Ishlab chiqarish va samaradorlik	Ishlab chiqarish hajmi (nominal, trln so'm)	23,2	57,5	65,7	102,7
	Sanoatdagi ulushi, %	3,3	2,7	2,6	2,2
	Bandlik (ming kishi)	71,0	85,4	85,4	76,2
Rivojlanish drayverlari	Investitsiyalar (mln AQSh dollari)	231	316	727	674
	Eksport hajmi (mln AQSh dollari)	245	200	939	927
	Korxonalar soni, ming dona	11,5	10,5	15,4	12,3

Rivojlanish drayverlari. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, investitsiyalar hajmi 2017–2024-yillar davomida 231 mln AQSh dollaridan 674 mln AQSh dollarigacha oshgan. Investitsiya faolligining kuchayishi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirish hamda kapital bilan qurollanish darajasining ortishiga xizmat qilgan [3].

Eksport hajmining 245 mln AQSh dollaridan 927 mln AQSh dollarigacha oshishi oziq-ovqat sanoatining tashqi bozorlarga integratsiyasi sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi [4]. Shu bilan birga, eksport hajmining o'sishiga qaramay, tarmoqning yalpi ichki mahsulot va sanoat tarkibidagi ulushining qisqarishi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushining yetarli darajada kengaymaganidan dalolat beradi.

Olingan natijalar oziq-ovqat sanoatida shakllangan iqtisodiy o'sish modelining murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Bir tomondan, mehnat unumdorligi va kapital bilan qurollanish darajasining oshishi ishlab chiqarish samaradorligining intensiv omillar hisobiga yaxshilanayotganini tasdiqlaydi. Ikkinchi tomondan esa, tarmoqning yalpi ichki mahsulot va sanoat tarkibidagi ulushining qisqarishi yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning umumiy iqtisodiyotdagi ulushi yetarli darajada kengaymayotganini anglatadi.

¹ Manba: Muallif tomonidan Review.uz. Infografika: 2017-2024 yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi. Review. <https://review.uz/uz/post/infografika-2017-2024-yillarda-ozbekistonda-oziq-ovqat-sanoatining-rivojlanish> ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Xalqaro qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Turkiya va Qozog'iston tajribasida oziq-ovqat sanoatida yuqori samaradorlik, asosan, chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Ushbu jihatlar O'zbekiston sharoitida ham tarmoq samaradorligini oshirishda ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 2017–2024-yillar davomida O'zbekiston oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish hajmi va investitsiya faolligining sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, bandlikning nisbatan sekin o'sishi sharoitida ishlab chiqarish hajmining kengayishi tarmoqda iqtisodiy o'sish asosan intensiv omillar — mehnat unumdorligining oshishi hamda texnologik modernizatsiya hisobiga ta'minlanganini tasdiqlaydi [5].

Ayni paytda, oziq-ovqat sanoatining yalpi ichki mahsulot va sanoat tarkibidagi ulushining qisqarishi mavjud o'sish modelining tarkibiy jihatdan to'liq samaradorligini oshirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Muallif xulosasiga ko'ra, tarmoqda barqaror va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bilangina emas, balki chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga tayangan tarkibiy transformatsiya orqali ta'minlanadi.

Olingan natijalar oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Oziq-ovqat sanoati bo'yicha statistik byulleten.
2. FAO. (2022). Digital agriculture in the Netherlands. FAO Report.
3. Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action. (2023). Industrie 4.0 in the food sector.
4. Review.uz. (2024). 2017–2024-yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi: Infografika.
5. Rhee, H. J. (2021). Technological innovation in Korean meat processing industry: From waste reduction to bioenergy production. *Journal of Cleaner Production*, 290, 125–137. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2021.125137>
6. World Bank. (2023). Green growth and sustainable industry in China. World Bank Group.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (n.d.). Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon. <https://lex.uz/uz/docs/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
